VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATINING SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YUZASIDAN YECHIMLARI

Fayzullayeva Shahrizoda Jamshid qizi
TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o‘quvchisi, “Yuridik klinika” to‘garagi a’zosi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24128881

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning ortish tendensiyalari va **2025–2026-yillardagi statistik ko‘rsatkichlar** tahlil qilingan. Jinoyat sodir etilishining asosiy omillari sifatida ota-ona nazoratining yetishmasligi, oilaviy iqtisodiy qiyinchiliklar va salbiy muhit ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.

Maqolada **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi** asosida voyaga yetmaganlar uchun belgilangan jinoiy javobgarlik yoshi (14 va 16 yosh) hamda ularga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlari (jarima, majburiy jamoat ishlari, ozodlikdan mahrum qilish va b.) batafsil yoritilgan. Muammoning yechimi sifatida oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish, bolalarning bo‘sh vaqtini unumli tashkil etish, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish hamda **“Yangi O‘zbekiston yoshlari 2030” strategiyasi** doirasida davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Аннотация: В данном тексте анализируются тенденции роста преступности среди несовершеннолетних на основе **статистических данных за 2025–2026 годы**. В качестве ключевых причин правонарушений выделяются недостаток родительского внимания, экономические трудности в семьях и негативное влияние окружения.

Рассматриваются правовые аспекты проблемы согласно **Уголовному кодексу Республики Узбекистан**: возраст наступления уголовной ответственности (14 и 16 лет) и специфические виды наказаний, применяемые к подросткам (штрафы, обязательные общественные работы, лишение свободы и др.). Автор подчеркивает важность здоровой семейной атмосферы, organizatsii полезного досуга молодежи (спорт, кружки) и синергии между семьей, общиной (махаллей) и государством. Также упоминается государственная поддержка в рамках стратегии **«Молодежь Нового Узбекистана — 2030»** как важный фактор предупреждения преступности.

Abstract: This text analyzes the rising trends in juvenile delinquency, supported by **statistical data from 2025–2026**. It identifies lack of parental supervision, domestic financial hardships, and negative peer influence as the primary root causes of youth crime.

The document outlines the legal framework based on the **Criminal Code of the Republic of Uzbekistan**, specifying the age of criminal liability (14 and 16 years old) and the types of penalties applicable to minors (fines, compulsory community service, restriction of liberty, and imprisonment). As a solution, the text emphasizes the role of a healthy family environment, meaningful leisure activities (sports, music), and multi-stakeholder cooperation involving families, local communities (mahallas), and educational institutions. Finally, it highlights the state opportunities provided under the **"Youth of New Uzbekistan 2030" Strategy** to empower the younger generation and prevent delinquency.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, jinoiy javobgarlik, Jinoyat kodeksi, ota-ona nazorati, iqtisodiy qiyinchiliklar, jazo turlari, profilaktika, "Yangi O‘zbekiston yoshlari 2030" strategiyasi.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Ключевые слова: преступность несовершеннолетних, уголовная ответственность, Уголовный кодекс, родительский контроль, экономические трудности, виды наказаний, профилактика, стратегия «Молодежь Нового Узбекистана — 2030».

Keywords: juvenile delinquency, criminal liability, Criminal Code, parental supervision, financial hardships, types of penalties, crime prevention, "Youth of New Uzbekistan 2030" strategy.

Bugungi kunda jinoyatchillikka qarshi kurashish va uning oldini olish davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirda jinoyatni sodir etayotgan yoshlar kundan kunga kõpaymoqda. 2025-yil statistikasiga e'tibor beradigan bõlsak, voyaga yetmaganlar tomonidan **3266 ta** jinoyat sodir etilgan. Bu mamlakatdagi jami jinoyatlarning 2.1 foizini tashkil etadi. 2026-yilning 6 oyida esa **1370** nafar voyaga yetmagan shaxs sudlangan, bu kõrsatkich 2025-yilning aynan shu vaqtiga nisbatan 115 nafarga ya'ni 9,1 foizga kõpaygan. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishining kõplab sabablari mavjud bõlib, shulardan biri ota-ona tomonidan nazorat va e'tibor yetarli emasligi. Ba'zi ota onalar erta-yu kech ishda bõlishi sababli, farzandlarining tarbiyasiga etarli darajada vaqt ajratolmayapti. Natijada yoshlar notõğri muhit va odatlarni õzlashtirishiga sabab bõlib qolmoqda.
Yana boshqa bir sabablariga toxtaladigan bõlsak, moddiy qiyinchiliklar, oilaning iqtisodiy ahvoli oğirligi yoki turli yetishmovchiliklar tufayli õğrilik va tovlamachilikka qõl urayotgan yoshlar ham kam emas. Bunday sharoitda ayrim voyaga yetmaganlar õz ehtiyojlarini qondirishga harakat qilib, notõğri dõstlar va jinoiy guruhlarga qõshilib qolish holatlari kuzatilmoqda.

Endi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqishi va qanday javobgarlikka tortilishi mumkinligini kõrib chiqamiz.

Õzbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 17-moddasida õn olti yoshga tõlgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikga tortiladi deb qayd etilgan. Lekin nega aynan 16 yosh qilib belgilanganiga qaraydigan bõlsak, 16 yoshga kelib insonni dunyoqarashi shaklanadi. U õz qilmishlarini oqibatini tushunadi va javob bera oladi. Lekin ayrim turdagi jinoyatlar masalan, õğrilik va qasddan odam õldirish kabi jinoyatlar uchun 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Chunki bu turdagi jinoyatni sodir etish uchun dunyoqarash va hayotiy tajriba muhim emas. **Jinoyat kodeksining 81-moddasida**18 yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo‘llanishi mumkin bo‘lgan asosiy jazo turlari sanab o‘tilgan. Bularga jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish kabilar kiradi. Yana bir muhim jihati shuki, voyaga yetmaganlarga qo‘shimcha jazo tayinlash mumkin emas. **82-moddasida** jarima bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 240 soatgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Bu **Jinoyat kodeksining 82¹-moddasida** keltirilgan. Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga va ma’naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, o‘qish jarayonini buzmasligi lozim. **Jinoyat kodeksining 83-moddasida** axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘z ish joyida o‘tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tarzida 1 oydan 1 yilgacha muddatga tayinlanadi. **85- moddasida** voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi 1 oydan 10 yilgacha muddatga tayinlanadi. 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish og‘ir jinoyat uchun – 6 yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyat uchun – 10 yilgacha. 16–18 yoshda bo‘lgan shaxslarga nisbatan esa og‘ir jinoyat uchun – 7 yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyat uchun – 10 yilgacha.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida yoki qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish kabi jazo tayinlanmaydi deb yozilgan**.**

Jinoyat kodeksining 86-moddasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda sud nafaqat sodir etilgan jinoyatni, balki shaxsning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyalanishi, sog‘lig‘ini, sodir etgan jinoyatining sabablariga ham alohida e’tibor qaratadi.

Voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishini kamaytiradigan chora tadbirlarga keladigan bo‘lsak, eng muhim yechimlardan biri ota-onani bola bilan suhbati. Har bir bola ota-onasidan mexr va e’tibor kutadi. Agar ota-onasi bolasiga hech bo‘lmaganda 1 kunda 1 soat vaqt ajratib,uning ichki dunyosi bilan qiziqib suxbatlashsa, birgalikda dars tayorlashsa farzandini yomon yo‘lga kirib ketishidan saqlab qolishi mumkin. Oilaviy ajralishlar, nizolar ham bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar bola ota onasining bir biriga qilayotgan qõpolligini kõrib ulğaysa, odamlarga nisbatan yuragida ğarazlik paydo bõladi. Aksincha ota-onaning mehri bolani erkin kamol topishiga katta hissa qo‘shadi. Qush inida kõrganini qiladi deganlaridek, ota onani yurish turishi ham bolaga ma’lum bir darajada õz ta’sirini kõrsatadi.Ota-onasining xulq atvori yomon bo‘la turib, farzanddan barkamol,odobli bola kutish ham noto‘g‘ri. O‘smirlarning atrofidagi do‘st va tanishlariga ham e’tibor berish kerak. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi degandek,hulqi buzuq do‘stlar va tanishlar yomon yo‘lga boshlashi tabiiy holat. O‘smirni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish ham jinoyat sodir etishini oldini oladi. Bolani bilim bilan bir qatorda turli sport va musiqa tugaraklari bilan band qilinsa,yomon yollarga kirib ketishga vaqt va xoxish ham qolmaydi deb o‘ylayman.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bir bolaga yetti mahalla ota-ona degandek, bir bolani mustaqil kamol topib voyaga etib,o’z yo’lini topib olguncha ota-onasi bilan birgalikda butun bir mahalla, o‘quv muassasalari, davlatimiz ham ko’makdosh bo’lib, bolani nazoratga olib, qo‘llab quvvatlansa, bunday jinoyatlarni soni kamayishi va voyaga yetmaganlarni bilimli bo‘lib kamol topishiga õz hissasini qõshgan bõladi.

Hozirda prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezident tashabbusi bilan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga zamonaviy ta’lim berish va bandligini ta’minlash maqsadida “**Yangi Ozbekiston yoshlari 2030” strategiyasi** va qator yangi imtiyozlar paketi joriy etilgan. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yaqinlarimiz,xalqimiz,yurt boshimiz ishonchini oqlab,kelajakda yurtimizga, xalqimizga foydasi tegadigan etuk mutaxasis bo’lib etishishimiz biz yoshlar zimmamizdagi xam burchimiz xam majburyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Milliy qonunchilik ma’lumotlar bazasi (Lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (Maqolada tilga olingan dastur doirasida).
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Ichki ishlar vazirligining 2025–2026 yillardagi jinoyatchilik holati va sud amaliyotiga oid rasmiy statistik hisobotlari.
4. Rasulov, A. X. (2024). Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning huquqiy javobgarligi xususiyatlari. Toshkent: Yuridik adabiyotlar publikatsiyasi.
5. Ismoilov, B. A. (2025). Oilaviy muhitning bola tarbiyasi va jinoyatchilikning oldini olishdagi roli. TDYuU axborotnomasi, №2, 45-52-b.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.